

**TALABA-YOSHLARNING IJTIMOIY-INNOVATSION  
FAOULLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

**Norimonova Gulmira Ulug'bek qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti  
Milly g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola talaba-yoshlarning ijtimoiy-innovatsion faoullagini oshirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, bu mavzu zamon talablariga javob beradigan dolzarb ahamiyatga ega. Mening fikrimcha, talaba-yoshlar jamiyatning eng faol va innovatsion qatlamlaridan biri sifatida ajralib turishi, shuningdek, ularning faolligi mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi deb o'ylayman. Talaba-yoshlar o'zlarining bilim va ko'nikmalarini jamiyatda yangi texnologiyalar, bilimlarni tarqatish, turli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish va innovatsion yechimlarini joriy qilib orishi uchun keng sharoitlar yaratilmoqda. Maqolada talaba-yoshlarning jamoat ishlarida faol ishtirok etishi, o'zgarishlarga bo'lgan tayyorgarligi, yangi g'oyalilar bilan jamiyatni yangilashga intilishi kabilar orqali ularning ijtimoiy-innovatsion faoullagini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar keltiriladi. Bugungi kunda yoshlarning shaxsiy rivoji, ijtimoiy ongini shakllantirish va innovatsion fikrlash ko'nikmalarini rivojlanishirish orqali ularning jamiyatdagi faoullagini oshirishga qaratilgan strategik yondashuvlarni ishlab chiqish lozim deb o'ylayman.

**Abstract:** This article is devoted to the issues of increasing the social and innovative activity of students, which is of urgent importance in response to the demands of the time. In my opinion, students stand out as one of the most active and innovative strata of society, and their activity directly affects the social and economic development of the country. Broad conditions are being created for students to improve their knowledge and skills by disseminating new technologies and knowledge in society, implementing various social projects, and introducing





*innovative solutions. The article presents proposals and recommendations aimed at increasing the social and innovative activity of students through their active participation in public affairs, readiness for change, and desire to renew society with new ideas. Today, I believe that it is necessary to develop strategic approaches aimed at increasing their activity in society through the personal development of young people, the formation of social consciousness, and the development of innovative thinking skills.*

**Аннотация:** Статья посвящена вопросам повышения социальной и инновационной активности студентов и молодежи, что является актуальной проблемой, отвечающей требованиям времени. По моему мнению, студенты являются одной из самых активных и новаторских частей общества, и я считаю, что их деятельность напрямую влияет на социальное и экономическое развитие страны. Создаются широкие условия для студентов и молодежи для совершенствования своих знаний и навыков путем использования новых технологий, распространения знаний, реализации различных социальных проектов, внедрения инновационных решений в общество. В статье представлены предложения и рекомендации, направленные на повышение социально-инновационной активности учащейся молодежи за счет ее активного участия в общественных делах, готовности к переменам, стремления обновлять общество новыми идеями. Сегодня я считаю, что необходимо разрабатывать стратегические подходы, направленные на повышение активности молодежи в обществе через ее личностное развитие, формирование ее социальной сознательности, развитие навыков инновационного мышления.

**Kalit so‘zlar:** talaba-yoshlar, ijtimoiy faollik, innovatsion faoliyat, yoshlar siyosati, startap, zamonaviy texnologiyalar, ilmiy-innovatsiya, tashabbuskorlik, raqamli transformatsiys, ijtimoiy loyihalar.



**Keywords:** students-youth, social activism, innovative activities, youth policy, startup, modern technologies, scientific innovation, initiative, digital transformation, social projects.

**Ключевые слова:** студенчество, социальный активизм, инновационная деятельность, молодежная политика, стартап, современные технологии, научные инновации, инициатива, цифровая трансформация, социальные проекты.

**Kirish qismi:** Bugungi kundagi globallashuv jarayonida har bir davlatning barqaror taraqqiyoti va xalqaro maydonda munosib o'rin egallashi, avvalo, uning intellektual yondashuvga ega bo'lgan yosh avlodi bilan bog'liq. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar-jamiyatning eng ilg'or, bilimdon va ijtimoiy ma'sulyatini anglay oladigan qatlamni tashkil qiladi. Shu tufayli ularning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish, innovatsion g'oya va tashabbuslarga jalb qilish va zamonaviy muammolarga yahshi yechimlar topishdas faol ishtirokini ta'minlash muhim masala hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda faol ishtirokini ta'minlash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bunga misol qilib, Prezidentimiz farmon va qarorlarida, davlat dasturlarida talaba-yoshlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish va ularni startap loyihalarga jalb qilish, ilmiy-ijodiy muhitda faol bo'lishlarini ta'minlash bo'yicha aniq yo'nalishlar belgilangan. Bu kabilar yoshlar orasida ijtimoiy faollikni kuchaytirish bilan bir qatorda, ularni zamonaviy va raqobatbardosh kadrlarga aylantirish imkonini yaratmoqda.

Ilmiy innovatsion faollik- talaba va yoshlarning o'z bilim va ko'nikmalarini amaliyotga tatbiq qila olishi, balki jamiyat hayotidagi dolzarb muammolarga befarq bo'lmay, ularning yechimi uchun g'oyaviy va tashabbuskorlik bilan ishtirok qilish qobiliyati tushuniladi. Bugungi kunda talaba-yoshlaridan faqatgina nazariy bilimga ega bo'lish bilan bir qatorda bu bilimlarni



ijodiy fikrlashga, amaliy loyihalarga aylantirishga, jamoatchilik hayotida faol bo‘lishi kabi talablardan iborat.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti innovatsion yondashuv va bilimlarga asoslangan iqtisodiyot tamoyillariga tayanib kelmoqda. Bu singari sharoitlarda inson kapitalining eng muhim tarkibiy qismi sifatida yoshlarning,xususan, talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligi va innovatsion salohiyatini chiqarish muhim ilmiy-amaliy masala hisonblanadi. Mening fikrimcha, bugungi kunda global miqyosda yuz berayotgan texnologik o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi bugungi yosh avlodning yangicha fikrlashini, tashabbuskorligini va muammolarga ijodiy tarafdan yonashish qobiliyatini talab qiladi,albatta.

**Asosiy qismi:** Talaba-yoshlarning ijtimoiy-innovatsion faolligini oshirish bugungi kunda ta’lim tizimining ustuvor va muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Bu jarayon o‘z ichiga bir nechta muhim omillarni oladi: ijtimoiy faollikni rivojlantirish, innovatsion salohiyatni oshirish, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish bilan birga, zamonaviy texnologiyalar asosida fikrlash madaniyatini shakllantirish va yoshlarning tashabbuslarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlamog‘imiz zarur. Bular:

1. Ijtimoiy faollik-bu shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok qilishiga, ijtimoiy masalarga befarq bo‘lmasligi va ularni hal qilishga qaratilgan tashabbuskorlik, ongli fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy ma’sulyatidir. Hozirda talabalar orasida ijtimoiy faollikni rivojlantirish uchun, birinchi nabvbatda, ular bilan muloqot samaradorligini oshirish, o‘z fikrini to‘liq ifoda qila olish imkoniyatlarini yaratish muhim hisoblanadi. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida talabalarni turli jamoat tashkilotlari, talaba-yoshlar kengashlari, “Yoshlar ittifoqi”, debat kulublari va volyontorlikka jalb qilish orqali bu yo‘nalishda ijobiy natijalarga erishib kelmoqdamiz.
2. Innovatsion faollik va uning tarkibiy jihatlari:



Innovatsion faollik-bu shaxsning yangi g‘oy va texnologiyalarni ishlab chiqarish hamda amaliyotga tatbiq qilishdagi faolligi, muammolarga yangicha yondashuvni shakllantira olishi bilan belgilanadi, albatta. Oliy ta’lim muassasalaridagi “Talabalar innovatsion markazlari”, inkubatsiya va akseleratsiya dasturlari aynan shu maqsadga xizmat qilib kelmoqda.

3. Ta’lim va innovatsiya integratsiyasi: Innovatsion taraqqiyotning muhim sharti bu-ta’lim va ilmiy-amaliy faoliyatning uzviy integratsiyasi hisoblanadi. Bu asosida ta’lim, STEAM yondashuvi, raqamli platformalardan foydalanish, amaliy mashg‘ulotlar va ishlab chiqarish amaliyotlari orqali amalga oshirilib kelinmoqda. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida “ilm-ta’lim-ishlab chiqarish” uchligi asosida faoliyat yurituvchi innovatsion muhitni shakllantirishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

4. Rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash tizimi: Talaba-yoshlarning ijtimoiy-innovatsion faolligini oshirishda ularning tashabbuslarini moliyaviy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash alohida ahamiyatga egadir. Bularga misol qilib: stipendiyalar, faxriy yorliqlar, ilmiy tanlovlarda g‘olib bo‘lgan talabalarni e’tirof qilish orqali ularning motivatsiyasi amalga oshirilmoqda.

5. Yoshlarning axborot texnologiyalari va raqamli innovatsiyalar bilan ishslash salohiyati: Raqamli transformatsiya davrida yoshlarning texnologiyalarini egallash darajasi ularning innovatsion faolligini belgilovchi asosiy omillaridan biridir. Shu tufayli, oliy ta’lim muassasalarida dasturlash, sun’iy intellekt, robototexnika, kiberxavfsizlik kabi zamonaviy yo‘nalishlarini o‘rgatish, raqamli savodxonlikni oshirish, AKT vositalaridan ijodiy foydalanishga katta e’tibor berib kelinmoqda. Bu kabilar orqali yoshlarimiz o‘z g‘oyalarini tez va samarali amalga oshirish imkoniyatlari mavjud.

6. Xalqaro tajriba va hamkorlik aloqalari: Talaba-yoshlarning ijtimoiy-innovatsion faolligini oshirishda xalqaro tajribani o‘rganish va xorijiy olim ta’lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish ham muhim ahamiyatga egadir.

**Xulosa:** Mening fikrimcha bugungi kunda ham talaba-yoshlarning

ijtimoiy-innovatsion faolligini oshirish orqali jamiyatning kelajagi uchun muhim vazifa bo'lib kelmoqda. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ilmiy-innovatsion, ta'lim va ishlab chiqarish muhitining integratsiyasi, yoshlarning ijtimoiy va innovatsion salohiyatini oshirish, shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlari tominidan ham qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni takomillashtirish zarur deb o'layman. Menimcha, talabalar orasida innovatsion fikrlash, tashabbuskorlik va amaliy bilimlarni rivojlantirish orqali ularga iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni yaratish imkonini beradi deb o'layman.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shukurov,A.(2020).Yoshlar siyosati va ta'lim tizimidagi innovatsiyalar.Toshkent:“O‘zbekiston”nashriyoti.
2. Xodjaev,I.(2019).Innovatsion ta'lim:nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.Toshkent:O‘zbekiston Respublikasi oliv va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi.
3. Rahmonov,A.(2018).Ta'lim va innovatsiyalar:yoshlar uchun yangi imkoniyatlar.Toshkent:Fan va texnologiya nashriyoti.
4. <https://ilmiyanjumanlar.uz>
5. <https://uzbekistan.ureport.in>

